

**BOSHLANG‘ICH SINFNING BOSHQARISH VA O‘QUVCHILAR
O‘RTASIDA TURLI MA‘NAVIY-MA‘RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL
ETISH**

Namangan viloyati, Uchqo‘rg‘on tumani 41-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Boborahimova Nazira Umaraliyevna

Anotatsiya: Maqolada maktabda sinf rahbar kim?, sinf rahbarning vazifalari haqida, o‘quvchilarga tarbiya, tadbirlar, mushoiralar, kechalar, uchrashuvlar orqali berilishi, sinf rahbar tomonidan o‘tkaziladigan barcha ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishda yordam berishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘z: Sinf rahbar, ota-ona, oila, jamoatchilik, odob-axloq, radio, televiddeniya, teatr, musiqa, Vatan, kitob.

Xalq ta‘limi vazirligining 180-sonli buyrug‘i bilan umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida yangi tahrirdagi nizomi tasdiqlandi.

Mazkur nizom bilan bog‘liq asosiy o‘zgarishlar maktablarda sinf rahbari tomonidan yuritiladigan hujjatlarning soni bilan bog‘liq.

Xususan, 2020/2021-o‘quv yilidan e‘tiboran sinf rahbarining hujjatlari 4 tadan 2 taga qisqartirildi.

Yuritiladigan hujjatlarning sonini kamaytirish yoki optimallashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, umumta‘lim maktablarida tashkil etilayotgan tarbiyaviy ishlarning bevosita manzilli va izchil ko‘rinish kasb etishiga erishishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf rahbari – sinf o‘quvchilari jamoasining tashkilotchisi bo‘lishi, o‘quvchilarni, ularning yashash sharoitlarini, fe‘l-atvor xususiyatlarini, qiziqishlari va nimalarga moyilligni yaxshi bilishi va shularni hisobga olgan holda maktab oldidagi turgan o‘quv vazifalarini hal qilishda sinf bilan ko‘p qirrali ishlarni

olib borishi kerak. Umumiy oʻrta taʼlim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish Xalq taʼlim vazirining 2020-yil 30-iyuldagi 180-sonli boʻyruqʻiga 2-ilovaga muvofiq (sinf rahbari nizomi) tashkil etiladi.

Oʻquvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng boʻlgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog –sinf rahbari deb ataladi. Boshlangʻich sinf rahbarining asosiy maqsadi, oʻquvchilarini toʻgʻri tarbiyalash jarayonida oʻquvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi va sinf rahbari tomonidan oʻquvchilarga eʼtiborliroq boʻlishi kerak. Maktabda oʻquvchilarga tarbiya sinf rahbarining ishlari orqali beriladi. Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlar va boshqa oʻyinlar orqali oʻquvchilarga taʼlim tarbiya beriladi. Shunga qarab oʻquvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi.

Boshlangʻich sinf rahbarining asosiy vazifalari quyidagicha:

-taʼlim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida oʻziga biriktirilgan sinf oʻquvchilarining amalda belgilangan taʼlim va tarbiya olishlarini tashkil etish;

-odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga qatʼiyan amal qilish, jamoada namunali boʻlish;

-oʻquvchining oʻsib-ulgʻayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat etish;

-har tomonlama yetuk, barkamol – maʼnaviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf oʻquvchilarining qobiliyatlarini toʻliq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;

-pedagogik va oʻquvchilar jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir oʻquvchining oʻziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yoʻlga qoʻyish;

Sinf rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida oʻz aksini toradi.

Sinf rahbarining faoliyati ko‘r qirrali va sermazmundir. U o‘zi rahbarlik qilayotgan sinf o‘quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o‘quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi. Tarbiyaga kompleks yondoshishi biror o‘quvchini ham e‘tibordan qochirmaslik sinf rahbari uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun sinf rahbari tarbiya obyektini bo‘lgan bolani yaxshi bilish, uni yaxlit idrok etishi kerak. Shuni ham unitmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta‘sir etuvchi omillar hozirgi davrda g‘oyat darajada ko‘paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf rahbari o‘z ishlarini maktab ma‘muriyati rahbarligi va bolalar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. Boshlang‘ich sinf rahbari ishini rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga sinf rahbari boshchilik qiladi.

Boshlang‘ich sinf rahbari faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan olib qaralganda, uni sinfnings bosh tarbiyachisi, murabbiysi, deyish mumkin. U o‘z sinf jamoasini tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi, o‘qituvchilar, bolalar tashkilotlari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan aloqa bog‘lab, sinfdagi umumiy tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qiladi.

Sinf rahbari maktab ma‘muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi.

Sinf rahbarining ish rejasini maktab direktori va direktor o‘rinbosari bilan birgalikda tuzadi va nazorat qilib boradi.

O‘qituvchilik bolalarga bo‘lgan munosabatda, katta mehribonligi bilan g‘amxo‘rliги xarakterlanadi. Bular esa katta talabchanlik bilan olib boriladi. O‘quvchilar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda

o‘quvchilarning o‘sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta qurish xususiyati ham sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bundan o‘qituvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo‘shimcha shart hisoblanadi.

O‘qituvchilik kasbiga shu jumladan sinf rahbari kasbiga xos bo‘lgan muhim fazilatlardan biri – bolalarni sevishi, ularning hissiyoti bilan qiziqishi, har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o‘qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o‘qituvchi bo‘la olmaydi.

O‘z xizmati xususiyatiga ko‘ra sinf rahbari tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun o‘qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo‘lmog‘i zarur. Tashabbuskor va g‘ayratli sinf rahbari bolalarni o‘z orqasidan ergashtira oladi, o‘quvchilar unga ergashadi.

Hozirgi davrida maktab va uydagi o‘quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo‘ymoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g‘oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirish, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilish, mehnatiga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni hal qilishda boshlang‘ich sinf rahbari muhim rol o‘ynaydi. Chunki, u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Boshlang‘ich sinfda tashkil etiladiga ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning sifat va samaradorligi, avvalo boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining g‘oyaviy ishonchiga va siyosiyligining darajasiga bog‘liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam, egallab borishi bilan o‘zining bilimini, ongini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf rahbari tomonidan o‘tkaziladigan barcha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ham o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf rahbari bevosita o‘quvchilarning yoshi, bilim saviyasiga, qiziqishlariga qarab ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarni rejalashtirish lozim

Turli mavzulardagi o‘tkaziladigan ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar o‘quv jarayonidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishda ham o‘z ahamiyatiga ega.

Quyida biz ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarning rejalaridan namunalar keltiramiz

No	Tadbirlar nomi	Bajarish turi	Vahti	Mas’ul kishi	Ijrosi haqida
1.	Ota-onam suyangan tog‘im	Uchrashuv	Mart oyining 1-haftasi	Sinf ota-onalar qo‘mitasi raisi	Tadbirda ...ota-ona, ...o‘quvchi ishtirok etdi

Sinf tarbiyaviy soatlarning mavzulari tubandagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi va yuqoridagi andozaga tartib bilan jamlanadi.

I. Ma`naviyat va burch tarbiyasi

Ma`naviyatimizning qadimiyligi, mazmun va mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy tamoyillari, uning jamiyatimiz taraqqiyotidagi roli va ahamiyati, insonni jonli mavjudotlardan ajratib turadigan ong va til, aql-idrok va tafakkur, odamgarchilik, muruvvat va saxovat, rahm-shafqat, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, tabiatni e’zozlash, ilm va fanni, adabiyot va san’atni, madaniyatni sevib ardoqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o‘zi va o‘zga millat kishilarini, ularning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va an’analarini hurmat qilish va qadrlash xislatlarini tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinadi.

Ma`naviy-ma`rifiy tadbir mavzulari: (namuna)

1. Ma`naviyat insonga havodek, suvdek zarur.
2. Insonni hayotini bezaydigan, go‘zallashtiradigan omil ma`naviyatdir.
3. Davlat va millat ma`naviyati bilan ko‘rkamdir.

4. Ma’naviy barkamol kishilar hayoti biz uchun namuna.
5. Halollik va rostgo‘ylik - inson fazilati.
6. Bugun niyat - ertangi haqiqat.
7. Chin va yolg‘on do‘stlik.
8. Haqiqiy va qalbaki qahramonlik.
9. Yomon odatdan saqlan.
10. O‘z g‘ururingni himoya qila olasanmi?
11. Qur‘oni karim va Hadisi sharifdan parchalarni o‘qish va muhokama qilish.

Eslatma. Yuqoridagi va endi tavsiya qilinadigan mavzularni sinf o‘quvchilarining qabul qilish darajasiga qarab soddalashtirish, murakkablashtirish mumkin.

II. Vatanni sevmok iymondadir.

“Uning baxt-saodati, yorug‘ istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo‘lsa, jonini fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir.

Inson uchun ota-ona, aka-uka, do‘st-birodar qanchalik zarur bo‘lsa, ham Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. Uni asrab-avaylash bizning burchimizdir. Chunki "Shu aziz Vatan barchamizniki", ekanligi o‘quvchilarga tushuntirilib, Olloh taoloh, tiluzabon, ongu-tafakkur bergan inson uchun Vatandan ortiq mehriyiyo va ulug‘ ne‘mat bergan inson uchun Vatandan ortiq mehriyiyo va ulug‘ ne‘mat yo‘qligini isbotlovchi mavzular bu bo‘limga kiritilishi mumkin.

1. Vatan - Sen suygan odamlar manzili.
2. Vatan - bu tug‘ilgan joy.
3. Vatan - bu insonlar yashaydigan muqaddas zamin.
4. "Davlat", "Hukumat", "Xalq" tushunchalari nima?
5. Urush va mehnat faxriylarini e‘zozlaymiz.
6. Xotira va mustaqillik kunini sharaflaymiz.
7. Vatanimga xizmat qilaman.
8. Chin Vatanparvarlik o‘z o‘lkasini sevishdan boshlanadi.

9. Hadisdan mavzuga oid parchalarni o‘qish va muhokama qilish.
10. Respublikamiz istiqlolini mustahkamlashda faolmiz.
11. O‘zingiz yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, viloyat tarixini bilasizmi?
12. Mening vatandoshim - zamondoshim.
13. "Bizdan ozod, obod vatan qolsin".
14. Yov qochsa, botir ko‘payar.
16. Mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz - faxrimiz.
17. O‘zbekiston - Vatanim manim.

III. Baynalmilal tarbiyaga oid tadbirlar

1. Baynalmilal birlik nima?
2. Sen hamdo‘stlik mamlakatlari va ularning bolalari haqida nimalarni bilasan?

Bu mavzuga tayyorgarlik tubandagicha tashkil etilishi mumkin. Hamdo‘stlik mamlakatlaridan biri tanlanib, uning tashkil topgan vaqti geografik jihatdan joylashishi, aholisi, tabiiy boyliklari, iqtisodi, adabiyoti-san’ati, chet mamlakatlar bilan aloqasi kabi savollar o‘quvchilarga bo‘lib beriladi. Navbatdagi tarbiyaviy soatga geografiya, tarix va adabiyot o‘qituvchilari taklif qilinib, o‘quvchilar tinglanadi. Fan o‘qituvchilarining suhbatini bilan mashg‘ulot yakunlanadi.

3. Bizning mahalla, qishloq. va tumanda necha xil millat vakillari yashaydi va ular qanday aloqadalar?

4. Tuman va viloyatlardagi qo‘shma korxonalar vakillari bilan uchrashuv uyushtirish, ekskursiya tashkil etish.

5. Chet tillarni o‘rganish - iqtisodiy mustaqillik poydevori.

6. Chet tili o‘qituvchisi bilan xorijiy tilda ma’lum temaga atalgan kecha o‘tkazish.

7. Hamdo‘stlik mamlakatlari hamda chet ellik o‘quvchilar bilan aloqa bog‘lash.

8. Chet mamlakatlarda ta’lim olayotgan yurtdoshlarimiz bilan aloqa o‘rnatish, ular orqali u mamlakat haqida ma’lumot to‘plab, muhokama qilish.

IV. Estetik (nafosat) tarbiyaga oid tadbirlar tarkibi

1. Musiqani qanday tinglash kerak?
2. Badiiy asar qanday o‘qiladi?

Afsuski, hozirgi kunda o‘quvchilarimiz kitob mutolaasiga qiziqmay quydilar. Zeroki, mashhur tatar olimi Rizouddin ibn Fahrudinning "Nasiyhat" kitobidan olingan ushbu parcha o‘quvchilar bilan ishlab chiqilsa, o‘quvchilarning bu kasalligiga shifo bo‘lsa ajab emas.

Kitob va mutolaa

1. Go‘zal kitoblar ajib narsalarni ko‘ruvchi-ku, ovloqda sirdosh, yolg‘izlikda do‘st, ojizlik vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi, u zamon ahvolidan so‘zlovchi, ummatlar voqiotini hikoya etuvchi, aqlli kimsalarning aqllarini ko‘rsatuvchi, oz haqli - ko‘p foydali narsalardir. Shuning uchun kitob olmaqda baxillik etmangiz, kitoblardan ayrilmangiz.

2. Lekin kitoblar orasida yo‘q, narsalar yozilmish - ma’nosiz narsalar ila to‘lganlari-da bordir, bularni o‘qimoq, qiymatli umrni zoi’ etmoqdir. Shuning uchun fikrlarni nurlantirajak, hulqi poklarga yordam berajak, aqlni ortirajak kitoblarni ixtiyor etib, boshqalardan yiroq bo‘lingiz. Foydali kitoblarni o‘qimak ko‘ngliga shodlik keltirur, fikrga oziq bo‘lur, zehnga quvvat berur...

3. Ba’zi kimsalar bo‘ladiki, “kitobi ko‘b” deb xalq orasida nom chiqarmoq uchungina kitob yig‘ib, o‘zlari hechda foyda olmaslar. Boshqalarga-da» foyda oldirmaslar, hatto ichlarida nimalar borliginida bilmaslar. Bular yo‘q tashuvchilar misolidadir. SHuning uchun sizlar o‘zingiz foyda olajak bo‘lgan kitoblarni o‘zingiz foyda olmoq uchun ixtiyor etingiz.

4. Mutolaa insonning yuziga nur, ko‘ngliga shoddik keltirur. Ushbu sabab uchun zehn xizmati ila mashg‘ul bo‘luvchilar harnaqadar oriq bo‘lsalarda, aqllari semiz va yo muhabbatli bo‘lur.

5. Musiqaning ajoyib sahifalari - musiqali soat o‘tkazish. O‘quvchilarga mumtoz ashulalardan birining nomi aytiladi. Topshiriq: she’r muallifi, bastakori haqida ma’lumot to‘plab kelish, gramplastinka yoki magnet tasmaiga yozilgan

qo‘shiqni topish va birgalikda eshitib, muhokama qilish, Bolalar o‘zlariga topshirilgan vazifani musiqa o‘qituvchisi yordamida sinf tarbiyaviy soatida muhokama qiladi.

6. Sen mehmoni qanday kutasan, mehmonda o‘zingni qanday tutasan? (Mehmon bo‘lish va kutish adabi haqida).

7. "San'atkor dunyosida", "Ulug' rassom" mavzularida suhbat, uchrashuv, ekskursiya o‘tkazish, albom yoki stend tayyorlash.

V. Bilim olishda ongli munosabatni tarbiyalashga oid tadbirlar

Bu tarbiyaviy tadbirni yuqoridagi kitobdan olingan quyidagi parchalarni sinf tarbiyaviy soatida ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Ilm ko‘ngil ko‘zini ochur, nodonlik qorong‘ulikni keltirur, ulug‘ darajalar etkurur, dushmanlarga qurol bo‘lur, tiriklikni saqlar, dunyo kutmak sabablarini bildirur, yurt ichida va umumxalqlar ila qanday suvratda bo‘lmak kerak ekanini o‘rgatur. Ilm olimlarning hurmati bu, o‘g‘rilardan qurquvsiz davlat va hech bitmayturgan boylikdir.

2. Olimlar payg‘ambarlarning vorislari, dunyoning nurlari bo‘lib, nodonlarda dunyoda turganlari holda o‘liklar xukmidadirlar, chunki ular Olloh taoloning ajib narsalariga kerak vaqtidagina ko‘z solurlar, lekin ibrat ola bilmaslar. Kerak vaqtida suv ichadilar, ammo suvning nimadan hosil bo‘lgani, chashmalarning qaerdan kelib, qaerga ketganlaridan xabar bo‘lmas.

3. Ilmi xo‘b kimsalarga qaraganda oz ilmi bo‘lmakdan uyalmangiz, balki bilmoq qo‘lingizdan kelajak narsalarni bilmay qoluvingizdan uyalingiz, chunki bunisi aybdir.

4. Ilm ahllariga nafs ortidan yo‘rmak hech kelishilgan ish emas, shuning uchun shariy‘at o‘lchovidan tashqari mol sevmangiz shahvatlarga asir bo‘lmangiz.

5. Har vaqt ilmga muhabbat qo‘yingiz, o‘rgatilmish narsalarni ixlos ila tinglangiz, kerakliklardan so‘ng kerakliklarni o‘rganingiz va har bir ilmdan ko‘rkam bu bilingiz, hech vaqt ilmga takabburlik ko‘rsatmangiz.

6. Ilm o‘rganmoq harna qadar go‘zal ish bo‘lsa-da, buzuq niyat ila bo‘lganida

go‘zalligi yo‘q olur. SHuning uchun "Bizdan Ollloh taolo rizo bo‘lsin ham yaxshi ishlarga sabab bo‘lsin", deb niyat etingiz. Bu esa yaxshi niyatdir. "Imom, muazzin, oxund, qozi yoki muallim, mudarris va nima bo‘lsa-da, bir martabaga erishsak edi", deb niyat etmangiz, ko‘nglingizda bu kabi narsalar bu, chiqaringiz, chunki bo‘ yaxshi niyat emasdir. Zero ilmdan maqsad daraja emas, balki foydali odam bo‘lmakdir.

7. Xazinangizda bo‘lgan ilmdan ortiqni da’vo etmangiz, o‘z-o‘zingizga ulug‘lik ila hukm aylamangiz. Bilursizmi, donolari ko‘ va yirik bo‘lgan boshhoqlar har vaqt boshlarini qo‘yi solib tururlar. Donsiz yoki donli boshhoqlar boshlarini yuqori ko‘tarib tururlar, ozgina havo silkinsa, silkina boshlaydilar, holbuki, o‘zlarining o‘tga yondirmoqdan boshqa foydalari bo‘lmas.

1. "So‘nggi axborot" minuti o‘tkazish. O‘quvchilarga navbat bilan hafta mobaynida Vatanimiz va chet el yangiliklaridan to‘plab, muhokama qilinadi. Materiallar gazeta, radio va televideniya dan to‘planadi. Buning uchun har tarbiyaviy soatda 3-4 minut vaqt ajratiladi. davomida har bir o‘quvchi bu tadbirda bir marta qatnashadi.

2. O‘quvchilarni maktabdagi fan to‘garaklarga qatnashishini etish va kuzatish.

3. "O‘ylab ko‘r", "Bahs", "Bilib qo‘ygan yaxshi", "Yangiliklar", mavzularda sinfnng munozara burchagini tashkil etish.

4. Gazeta va jurnallarga obuna bo‘lishini ta’minlash.

5. Radio va televideniyalarda o‘tadigan o‘quvchilarbop eshittirish ko‘rsatuvlarni eshitish va ko‘rish, uni muhokama qilish.

6. Fan haftaliklarida ishtirok etish.

7. Fanga oid maktabda tashkil etiladigan ko‘rgazma, kecha, badiiy olimpiadalarda qatnashish.

VI. Ekologik tarbiyaga oid tadbirlar

Inson samarali mehnati, tabiat noz-ne'matlaridan oqilona foydalanishi va uning go'zalliklaridan bahramand bo'lishi tufayli farovon hayot kechiradi. O'quvchilarda bu tushunchani shakllantirishda ekologik tarbiya muhim o'rin tutadi.

Ekologik tarbiya – bu o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaslik, tabiat, inson, hayvonot va o'simliklar dunyosini e'zozlashni shakllantirish demakdir. Bu jarayon dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

1. Yashab turgan tuman, viloyat tabiatini o'rganish.

3. "Suvsiz hayot bo'lmas", "Er xazina, suv oltin", "Tabiat uchunchi - akamiz mavzularida til adabiyot o'qituvchisi hamkorligida insho o'tkazish, muhokama qilish, namunali insholar ko'rgazmasini tashkil etish.

3. "Tabiat boyliklari deganda nimani tushunasiz?", "Tabiatni uchun asrash uchun nimalar qilish kerak?", "Qanday zavodlar havoni ifloslaydi?", "Orol dengizi haqida nimalarni bilasiz?", "Qanday daraxt va gullarni sevasiz?" mavzularida munozara tashkil etish.

VII. Sog'liqni saqlash. Sog'lom avlodni tarbiyalash tadbirlari

1 . Tibbiyot xodimlarining "Tozalik va sog'lik," haqidagi suhbatlarini uyushtirish.

2. "Sog'lom tanda – sog'lom aql", "Sog'liq - tuman boylik" mavzularida munozara o'tkazish.

3. Buyuk allomalarning sog'lik-salomatlik haqidagi o'gitlarini muhokama qilish.

4. Gazeta, jurnal va badiiy asarlar qanday o'qiladi? Mavzusida munozara.

5. Jinsiy tarbiya borasida o'g'il va qiz bolalarga alohida-ma'lumot berish.

SHuningdek, "Nasiyhat" kitobidan "Ovqatlanmok" va "Ichmak" odoblari haqidagi ibratli parchani ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq, bo'ladi.

VIII. Jismoniy tarbiyaga oid tadbirlar

"Badan tarbiya bilan mo‘tadil va uzoq vaqt shug‘ullanuvchi kishi tabiblarning davosiga muhtoj bo‘lmaydi". Abu Ali ibn Sino

Kelajak avlodni har jihatdan etuk qilib tarbiyalash, o‘quvchilarni jismoniy baquvvat, har qanday muhitga, mehnatga qodir va chidamli qilib tarbiyalash maqsadida sinf tarbiyaviy soat darslari va boshqa tarbiyaviy tadbirlarda tubandagi mavzulardan foydalanish

1. Salomatlikni saqlash va tiklash uchun jismoniy mashqlardan foydalanish (Maktabdaga darsdan oldingi badan tarbiya mashqlariga qatnashishlarini ta’minlash).

2. O‘quvchilarni maktab va maktabdan tashqaridagi sport musobaqalariga qatnashishlarini ta’minlash.

3. "Yoshlik-chakqonlik" mavzusida suhbat.

4. "Ular bilan faxrlanamiz" mavzusida uchrashuv o‘tkazish, albom yoki stend tayyorlash (maktab, tuman yoki viloyatdan chiqqan sport mash’allari haqida).

5. "Agrar yursang piyoda, umring bo‘lar ziyoda" mavzusida ta’til vaqtlarida ekskursiyalarga chiqish.

6. Sport musobaqalariga jalb qilish.

7. Vatandosh buyuk allomalarimizning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlarini muhokama qilish.

Tarbiyaning muhim sohasi sanalmish jismoniy tarbiya haqidagi o‘zbek mutafakkir olimi, etuk pedagog Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobidan olingan ushbu parchani o‘rganish o‘rinlidir.

"Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. Chunki, o‘qimok, o‘qutmok.. o‘rganmoq, va o‘rgatmoq; uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog‘ badanga bo‘lgan insonlar amallarida, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar.

Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh, ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon

xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini quyub, astarini yuvub, ovora bo‘lmoq kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun malham va sog‘lom bir vujud kerakdur”

IX. Eng yangi yangiliklar va tarixiy sanalarni nishonlash tadbirlari.

Mustaqillik tufayli hayotimiz kundan-kunga farovonlashib borishi shubhasiz. Albatta buning negizida Prezidentimiz va hukumatimizning yangi-yangi farmon, buyruq va ko‘rsatmalari yotadi. Buni biz shartli ravishda rejaga “Eng yangi yangiliklar” deb kiritdik. Bu bo‘lim rejaning eng oxirgi tadbirlaridan hisoblanadi va rejaning oxiriga kiritiladi. Tarixiy sanalardan so‘ng qayd qilinadi. Tarbiyaviy tadbirlarda ularni o‘rganish va hayotga tadbiriq etish zarur, ya’ni zamon talablariga ko‘ra chiqarilgan yangiliklar reja tuzilgandan so‘ng e‘lon qilinsa, sinf rahbari belgilagan tarbiyaviy tadbiri o‘quv yilining qaysi yarim yilligidan qat’iy nazar, tarixiy sanalardan keyin mavzuni qayd etadi va tegishli tadbiri o‘tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma: Nasaf 200-80 b
2. A.Inoyatova, S.Vorisov, “Sinf rahbarlari uchun qo‘llanma”: T-2000-yil
3. “Barkamol avlod orzusi”: T-Sharq nashriyoti 1999-yil